



NOMUHIM SO‘ZLAR TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Mahmudjonova Gulshahnoz Ulug‘bek qizi

ToshDO‘TAU, kompyuter lingvistikasi

yo‘nalishi 1-kurs magistranti,

gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nomuhim so‘zlar tushunchasi va uning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Grammatik qoidalarga asoslangan nomuhim so‘zlar ro‘yxati mustaqil so‘zlardan, yordamchi so‘zlardan ishlab chiqilib, amaliyotga taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *nomuhim so‘zlar, semantik ma’no, tabiiy tilni qayta ishlash, mashinali o‘qitish, grammatik usul, chastota, grammatical ma’no, hujjat, yordamchi so‘zlar.*

Annotation: This article discusses the concept of stop words and its importance. A list of stop words based on grammatical rules is developed from independent words and auxiliary words and offered for practice.

Key words: *stop words, semantic meaning, natural language processing, machine learning, grammatical method, frequency, grammatical meaning, document, auxiliary words.*

Kirish. Nomuhim so‘zlar barcha tillarda mavjud bo‘lib, semantik ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlarga aytildi. Kam ma’noli ma’lumotlarga ega bo‘lgan yoki mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan yoki barcha matnlarga xos keng tarqalgan so‘zlar nomuhim so‘zları deb ataladi [Madatov X.A, Sharipov M.S, Bekchanov Sh.K, O‘zbek tili matnlaridagi nomuhim so‘zlar]. Dastlab hujjatlarni qayta ishlash va qidiruv tizimi algoritmlarini tezlashtirish uchun foydalanilgan nomuhim so‘zlar endi modellarni o‘qitish kabi mashinali o‘rganishni o‘z ichiga olgan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vazifalarida: ma’lumotlarini qidirish (IR), matnni sarhisob qilish, indekslash, ijtimoiy media platformalari, klasterlash va qidirish tizimlarida qo‘llanilib kelinmoqda. Nomuhim so‘zlar matnga semantik ma’no deyarli yuklamasligi sabab, hujjatdan ularni olib tashlash ma’lumotlar to‘plami hajmini kamaytirishi mumkin, bu esa ma’lumotlarni tez va oson qayta ishlashda yordam beradi. Nomuhim so‘zlarni olib tashlash orqali hisoblash tez va ma’lumotlar xotiradan ko‘p joy olmasligiga erishish mumkin. Ular **hech qanday mazmunli ma’lumot bermaydi**, ayniqsa, matn tasniflash modellarida foydalanish yaxshi natija beradi. TF-IDF asosida o‘zbek tili matnlarini tasniflashda matnga oldindan ishlov berish jarayonida, ya’ni lemmatizatsiya qilishdan oldin nomuhim so‘zlar matndan olib tashlangan [Mahmudjonova G.U. TF-IDF asosida o‘zbek tili matnlarini tasniflash, O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanı, 2023.25.03]



Asosiy qism. Nomuhim so‘zlar hujjatning katta qismini tashkil etuvchi matn tarkibidagi so‘zlar bo‘lib, ularning umumiyligini xususiyati shundaki, hujjatda muhim ma’lumotga ega emas; faqat grammatika tufayli ishlataladi. Hujjatdagi matndan nomuhim so‘zlar tushirib qoldirilsa, matn mazmuni o‘zgarmaydi.

Matnning asl varianti: Farzandingizga ertaklardan birini o‘qing. Matn haqida bir nechta savol bering. Agar bola o‘qiy olsa, uni o‘zi qisqa hikoya o‘qishga taklif qiling va keyin uni qayta aytib bering.


Matndan nomuhim so‘zlar olib tashlangandan keyingi holati: Farzandingizga ertaklardan o‘qing. Matn haqida savol bering. Bola o‘qiy olsa, qisqa hikoya o‘qishga taklif qiling, qayta aytib bering.

Nomuhim so‘zlarini aniqlash usullarini ikkita asosiy toifaga bo‘linadi:

1. Grammatika qoidalariiga asoslanib
2. Statistik usullar.

Ushbu maqolada grammatik qoidalarga asoslanib aniqlash mumkin bo‘lgan nomuhim so‘zlar taklif etiladi

Nomuhim so‘zlar ro‘yxati, asosan, mustaqil so‘z turkumlaridan sifat darajalari, miqdor-daraja, sabab, maqsad ravishi, olmoshlar, yordamchi so‘zlar, modal, taqlid, undov so‘zlardan tuzilishi mumkin. Sababi, bunday so‘zlarining matn mazmuniga ta’siri kam bo‘ladi, ya’ni gapda grammatik ma’no ifodalash uchun foydalaniлади. Quyida barchasi misolar orqali tushuntiriladi.



1-jadval. Nomuhim so‘zlar ro‘yxati

Predmet, narsa-buyumning belgisini bildirib, qanday, qanaqa so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘z turkumi sifat deyiladi. Sifatlar darajalanadi. Belgingining me’yordan, ortiq yoki kam darajada ekanligini ko’rsatish sifat darajalari deyiladi.



Sifat darajalari 3 xil: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja. Leksik usul bilan hosil qilingan sifatning qiyosiy va orttirma darajalari nomuhim so‘z bo‘la oladi.

1	<i>Qiyosiy daraja sifat ishtirok etgan gap</i>	Bemorning sog‘lig‘i kechagidan sal yaxshi
2	<i>Qiyosiy daraja sifat ishtirok etmagan gap</i>	Bemorning sog‘lig‘i kechagidan yaxshi

Yuqorida berilgan gapni orttirma daraja shakli bilan kelganda:

1	<i>Orttirma daraja sifat ishtirok etgan gap</i>	Bemorning sog‘lig‘i kechagidan g‘oyatda yaxshi
2	<i>Orttirma daraja sifat ishtirok etmagan gap</i>	Bemorning sog‘lig‘i kechagidan yaxshi

Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanib, ularni ko‘rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so‘z turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni ko‘rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmosh gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘lib keladi. Gapda olmoshlar aniqlovchi vazifasida kelganda, gapda ularni tushurib qoldirish mumkin.

1	<i>Ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan gap</i>	Bu qalam juda sifatli.
2	<i>Ko‘rsatish olmoshi ishtirok etmagan gap</i>	Qalam juda sifatli

Gumon, belgilash, bo‘lishsizlik, kishilik olmoshlari ham gapda aniqlovchi bo‘lib kelganda nomuhim so‘zlar ro‘yxatiga kiritish mumkin [Sayfullayeva.R, Mengliyev.B va boshqalar, Hozigi o‘zbek tili, Toshkent 2009, 345-bet].


1	<i>Belgilash olmoshi ishtirok etgan gap</i>	Gaplaringiz barchasi yolg‘on
2	<i>Belgilash olmoshi ishtirok etmagan gap</i>	Gaplaringiz yolg‘on

Ish-harakatning, holatning belgisini, belgining belgisini bildiruvchi so‘z turkumi ravish deyiladi. Ravish morfologik jihatdan o‘zgarmas bo‘lib, asosan fe’llarga bog‘lanib keladi, hol vazifasini bajaradi. Ravishlarning ma’no turlaridarn miqdor-daraja, sabab, maqsad ravishlarini ham nomuhim so‘zlar ro‘yxatiga kiritish mumkin.

1	<i>Miqdor-daraja ravish ishtirok etgan gap</i>	Otabek ko‘p ishlardi
2	<i>Miqdor-daraja ravish ishtirok etmagan gap</i>	Otabek ishlardi.



Yordamchi so‘zlar turkumiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi. Yordamchi so‘zlar mustaqil (leksik) ma’no bildirmaydi, faqat grammatick ma’no iodalash uchun xizmat qiladi.



2-jadval. Nomuhim so‘zlar (yordamchi so‘zlar)

Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlar ko‘makchilar deb ataladi. Ko‘makchi o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zdan keyin kelib, so‘zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ko‘makchi ikki xil bo‘ladi: 1. Sof ko‘makchi 2. Ko‘makchi vazifasidagi so‘z (funksional ko‘makchi) [6].

1	<i>Sof ko‘makchi ishtirok etgan gap</i>	Chapga buriling, keyin to‘g‘riga yuring
2	<i>Sof ko‘makchi ishtirok etmagan gap</i>	Chapga buriling, to‘g‘riga yuring

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo‘laklarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchi deyiladi. Bog‘lovchilar qo‘llanishiga qarab yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilarga ajratiladi. Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra esa ikki xil bo‘ladi: teng bog‘lovchilar; ergashtiruvchi bog‘lovchilar [6].

1	<i>Yakka bog‘lovchi ishtirok etgan gap</i>	Onam va singlimga gul oldim.
2	<i>Yakka bog‘lovchi ishtirok etmagan gap</i>	Onam, singlimga gul oldim.



Xuddi shu gap takroriy bog‘lovchi bilan kelganda:

1	<i>Takroriy bog‘lovchi ishtirok etgan gap</i>	Ham onamga, ham singlimga gul oldim
2	<i>Takroriy bog‘lovchi ishtirok etmagan gap</i>	Onam, singlimga gul oldim.

Matndan teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar olib tashlansa, gapning semantik ma’nosini deyarli o‘zgarmaydi.

Ayrim so‘z yoki gapga qo‘sishimcha ma’no ifodalash uchun qo’llanadigan yordamchi so‘z yuklama deyiladi. Yuklama tuzilishi jihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar:

-chi, -a (-ya), -da, -u (-yu), -oq (-yoq), -gina (-kina,-qina): b) so‘z holidagi yuklamalar: axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki[6].

1	<i>So‘z holidagi yuklama ishtirok etgan gap</i>	Axir , kelaman degandingiz
2	<i>So‘z holidagi yuklama ishtirok etmagan gap</i>	Kelaman degandingiz.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, yordamchi so‘zlar nomuhim so‘zlar bo‘la oladi.

Fikrning voqelikka munosabatini bildirgan so‘zlar modal so‘zlar deyiladi. Modal so‘zlar ma’no jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fikrning aniqligini, realligini tasdiqlovchi modal so‘zlar: albatta, shubhasiz, so‘zsiz

2. Fikrning taxminligini, gumonligini, noaniqligini bildiruvchi modal so‘zlar: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog‘i.

3. Fikrning o‘zaro munosabatini va tartibini bildiradi(yoki fikrning oldingi fikrga bog‘liqligini bildiradi): demak, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi,

4. Modallikni ifodalaydi: lozim, mumkin, shart, zarur.

5. Tasdiqni bildiradi: bor, mayli, xo‘p, ha.

6. Inkorni bildiradi: yo‘q, aksincha.

7. Afsuslanish, ajablanishni bildiradi: afsuski, attang, ajabo.

1	<i>Modal so‘z ishtirok etgan gap</i>	Demak , ertaga natijalar aniq bo‘ladi.
2	<i>Modal so‘z ishtirok etmagan gap</i>	E, Ertaga natijalar aniq bo‘ladi.

Demak, nomuhim so‘zlar ro‘yxatiga modal so‘zlar ham kiradi. Shu jumladan, undov so‘zlarni ham nomuhim so‘zlar qatoriga kiritish mumkin.



His-hayajonni, xitobni bildirishga xizmat qiladigan so‘zlar undov so‘zlar deyiladi: undovlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) leksik (lug‘aviy) ma’no anglatmaydi;
 - 2) gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi va gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi;
 - 3) undovda ohang muhim o‘rin tutadi;
 - 4) kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik ma’nolarni bildirmaydi.
- Masalan, undov so‘z gapda ishtirok etganda:

1	<i>Undov so‘z ishtirok etgan gap</i>	Oh, buncha shirin olma.
2	<i>Undov so‘z ishtirok etmagan gap</i>	Buncha shirin olma

Taqlid so‘zlar ikki xil:

1. Holatga (obrazga) taqlidni bildiruvchi so‘zlar: yalt, yarq, milt-milt, bilq, dir-dir.
 2. Tovushga taqlidni bildiruvchi so‘zlar: tars, turs, chars, gumbur-gumbur.
- Taqlid so‘zlarni ham nomuhim so‘zlar ro‘yxatiga kiritish mumkin.

1	<i>Taqlid so‘z ishtirok etgan gap</i>	U dir-dir qaltirardi
2	<i>Taqlid so‘z ishtirok etmagan gap</i>	U qaltirardi

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, nomuhim so‘zlar gap tarkibini grammatik shakllantirishda ishlatilinib, semantik ma’no ahamiyati kam.

Nomuhim so‘zlarni hujjatdan olib tashlashning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tomoni nomuhim so‘zlar matndan chuqur o‘rganish (deep learning) va mashinali o‘rganish (machine learning) modellarini qo‘llashdan oldin olib tashlanadi. Chunki nomuhim so‘zlar hujjatda tez-tez uchraydi va bu so‘zlarni tasniflash yoki klasterlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan muhim ma’lumotlarni saqlamaydi va bu so‘zlar olib tashlanganda ma’lumotlar to‘plamining hajmi kamayadi va modelni qo‘llashga ketgan vaqt qisqaradi. Salbiy tomoni noto‘g‘ri tanlangan va olib tashlangan nomuhim so‘zlar matn ma’nosini o‘zgartirishi mumkin. Har doim ham ular matnda olib tashlanmaydi. Nomuhim so‘zlarni olib tashlash matn ustida bajarayotgan vazifaga va erishmoqchi bo‘lgan maqsadga bog‘liq. Misol uchun, agar his-tuyg‘ularni tahlil qilish (sentiment analiz) vazifasini bajara oladigan modellarda bunday so‘zlarini olib tashlash noto‘g‘ri xulosaga olib keladi. Shuning uchun nomuhim so‘zlarini tanlashda ehtiyyot bo‘lish kerak. Quyida misol bilan tushintiriladi.

1	Siz bu ishni bugun qilishingiz shart emas .
---	--



2

Siz bu ishni bugun qilishingiz shart.

Agar bu gapda nomuhim so‘z sifatida “emas” so‘zi olib tashlansa, gapga teskari ma’no beradi. Ya’ni ish bugun qilinishi shart bo‘lib qoladi. Gap mazmuni butunlay o‘zgarib ketadi.

Nomuhim so‘zlarning ta’siri aniq bo‘lsa-da, nomuhim so‘zlar ro‘yxatini ishlab chiqish uchun aniq ko‘rsatma yo‘q. Shuning uchun turli tizimlar turli tillar uchun turli o‘lchamdagи nomuhim so‘z ro‘yxatidan foydalanadi. Ingliz tili uchun SMARTsystem 571 so‘zdan iborat nomuhim so‘z ro‘yxatini taklif qildi, Fox 421 so‘z hajmini taklif qildi va DIALOG axborot xizmati kabi tijoriy tizim faqat 9 so‘zdan iborat kichikroq nomuhim so‘zlar ro‘yxatidan foydalandi [Tijani O.D. Akinwale A.T. Onashoga S.A. Adeleke E.O, An auto generated approach of stop words using Aggregated analysis, Conference: 2017 Nigeria Computer Society International Conference]. Lekin ingliz tilida doimiy ravishda “a, the, and” [<https://gist.github.com/sebleier>] kabi so‘zlar foydalанилди. Bundan tashqари rus tilida “c, a, алло” [<https://github.com/stopwords-iso/stopwords-ru>], turk tilida “belki, çünkü, dahi” [<https://github.com/tkorkunkaya/Turkish-Stopwords>] kabi so‘zlar nomuhim so‘zlar sifatida githab platformasiga yuklangan. O‘zbek tili uchun nomuhim so‘zlar ro‘yxati Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Xusainova Z. tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib githab platformasiga [<https://github.com/Gulshahnoz/UzbekStopwords.git>] yuklandi. Nomuhim so‘zlar hujjatlarning konteksti yoki ma’lumotlariga hissa qo‘shtaydi va ular indekslash paytida, shuningdek, ma’lumot olish tizimi tomonidan so‘rov qilishdan oldin olib tashlanishi kerak. Biroq, turli hujjatlar to‘plamida yagona sobit nomuhim so‘zlar ro‘yxatidan foydalanish qidiruv samaradorligiga zarar yetkazishi mumkin [Dolamic L. and Savoy J., When stopword lists make the difference. Journal of the American Society for Information Science and Technology, 61(1):200–203, 2010]. Chunki bir hujjatda nomuhim hisoblangan so‘z boshqa bir hujjatda ahamiyatli bo‘lishi mumkin [Sankar S.S., Pal S., Effect of stopwords in Indian language IR, Indian Academy of Science, 2021. 25 August]

Nomuhim so‘zlarning xususiyatlari

1. Matnda juda kam qiymatiga ega bo‘ladi.
2. Matnda paydo bo‘lish chastotasi yuqori bo‘ladi
3. Kamdan-kam hollarda so‘rov so‘zları/qidiruv so‘zları sifatida ishlatilinadi, ya’ni ma’lumotlarni qidirishda bunday so‘zlardan foydalanimaydi.
4. Kirish so‘zlar, olmosh, modal, taqlid, undov so‘zlar yordamchi so‘zlar: bog‘lovchi, ko‘makchi yuklama kabi so‘zlar bo‘lishi mumkin.
5. Matn uchun umumiyl so‘zlar bo‘lib, muayyan sohada maxsus ishlatilinmaydi.
6. Tilning qurilishi uchun zarurdir.

Xulosa. Nomuhim so‘zlar – bu hech qanday ma’lumot qiymatiga ega bo‘lmagan va hujjatning katta qismini tashkil etuvchi matn tarkibidagi so‘zlar. Bunday so‘zlardan mashinali o‘qitish modellarida ma’lumotlar hajmini qisqartirish va modellar tez ishlashi uchun foydalanish mumkin. Matnlarni tasniflovchi



modellarda nomuhim so‘zlarni olib tashlash yaxshi natija beradi. Biroq his-tuyg‘ularga asoslangan modellarda bunday so‘zlarni olib tashlash notog‘ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolamic L. and Savoy J., When stopword lists make the difference. Journal of the American Society for Information Science and Technology, 61(1):200–203, 2010
2. Madatov X.A., Sharipov M.S., Bekchanov Sh.K., O‘zbek tili matnlaridagi nomuhim so‘zlar, <https://www.researchgate.net/publication/351951567>.
3. Elov B., Xusainova Z., Xudayberganov N. O‘zbek tili korpusi matnlari uchun TF-IDF statistik ko‘rsatkichni hisoblash. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 1774-1785.
 1. Mahmudjonova G.U. TF-IDF asosida o‘zbek tili matnlarini tasniflash, O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2023.25.03
 2. Sankar S.S., Pal S. Effect of stopwords in Indian language IR, Indian Academy of Science, 2021. 25 August
 3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozigi o‘zbek tili, Toshkent 2009, 345-bet
 4. Tijani O.D. Akinwale A.T. Onashoga S.A. Adeleke E.O, An auto generated approach of stop words using Aggregated analysis, Conference: 2017 Nigeria Computer Society International Conference
 5. <https://github.com/tkorkunkaya/Turkish-Stopwords>
 6. <https://gist.github.com/sebleier>
 7. <https://github.com/stopwords-iso/stopwords-ru>
 8. <https://github.com/Gulshahnoz/UzbekStopwords.git>